XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-44-60-11-169-K/21 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahrining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 dekabrdagi 01/20-01-32/845-sonli xati hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-39-64-11-0-K/21-sonli qarorini inobatga olib, xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 dekabrdagi 01/20-01-32/845-sonli xati hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-39-64-11-0-K/21-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Farg‘ona shahar mahalliy byudjetining 2022 yilgi daromadlari 251.9 mlrd.so‘m va xarajatlari 276.9 mlrd.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 25.0 mlrd.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Farg‘ona shahrining 2022 yilga mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

shaharning shahar byudjetidan 2022 yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq;

shahar mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi 4-ilovaga muvofiq;

viloyat byudjetidan shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

4. 2022 yil uchun shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2.6 mlrd. so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, shahar byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

Farg‘ona shahar byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetining zaxira jamg‘armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmacin.

5. 2022 yil uchun shahar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

6. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar 7-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi

va oshiruvchi koeffisiyentlar 8-ilovaga muvofiq;

7. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasi qilishdagi aksiz solig‘i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va lisenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizasiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat byudjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividendlar;

yer uchastkalariga bo‘lgan xukuklarni sotishdan tushgan pul mablaglari;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’yektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

Boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan shahar mahalliy byudjetining boshqa tushumlari hamda byudjet tashkilotlari asosiy vositalari

sotilishidan shahar byudjetiga tushumlar) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar shahar byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda shahar byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning 50 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiyasi qilishdagi aksiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

yuridik shaxslar foydasidan soliq bo‘yicha tushumlarning 50 foizi o‘tkaziladi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk soliqlag‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning 50 foizi;

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat byudjetiga o‘tkaziladi.

8. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Mo‘minov), moliya bo‘limi (Sh.Inoyatov), Davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev)lar bilan birgalikda 2022 yilgi mahalliy byudjetida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

9. Belgilansinki:

shahar hokimligi, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar tomonidan 2022 yilda byudjet

mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

10. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev):

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

Yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

Aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

Yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borish vazifasi yuklatilsin.

11. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev), Kadastr agentligi shahar bo‘limi (X.Maxmudov) 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, shaharda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasinlar.

12. Majburiy ijro byurosi Farg‘ona shahar bo‘limi (X.Sulaymonov), shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish

yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

13. Mahalla va oilani qo‘llab quvatlash bo‘limi (F.Abdillazov), mahalla fuqarolar yig‘inlari jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsinlar.

14. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Farg‘ona viloyat hududiy boshqarmasi (Sirojiddinov), shahar davlat soliq inspeksiyasi (Q.Bekmirzayev), shahar moliya bo‘limi (Sh.Inoyatov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslarning 2021 yil yakunlari bo‘yicha sof foydasidan byudjetga ajratmalarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmasdan byudjetga undirilishini ta’minlasinlar.

15. Shahar hokimligi (B.Mo‘minov), Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi (Xolmatov) bilan birgalikda tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar tuzsinlar hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishini ta’minlasin.

16. Shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dexqonov), Davlat xizmatlari agentligi shahar bo‘limi (O.Karimov) shaharda byudjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy byudjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

17. Qonunning 13-moddasiga muvofiq:

shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha Qonunning 6-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, Vazirlar Mahkamasiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan;

shahar hokimligi choraklar yakuni bo‘yicha mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari shahar hokimligining faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va

moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, shahar hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan ko‘rilgan choralar bilan birgalikda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan murojaat qilishi to‘g‘risidagi belgilangan tartibga amal qilsinlar.

shahar byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirilsin.

Bunda, shahar xalq deputatlari, shahar hokimligi, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sulligi belgilab qo‘yilsin.

18. Shahar byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlar tegishli ravishda xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan shahar hokimligining taklifiga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Shahar byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar tegishincha shahar hokimligi tomonidan majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlariga joylashtiriladi.

19. Shahar hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

20. Shahar hokimligi, byudjet mablag‘lari taqsimlovchilari hamda mas’ul bo‘lim va tashkilotlar:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurish,

rekonstruksiya va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’yektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tegishli ravishda majburiy tartibda o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borsin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, veb-saytlarida ularning natijalarini joylashtirib borilishini ta’minlasin.

21. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Mo‘minov), xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati, tegishli bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari:

Byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

22. Shahar hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

23. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi (J.Akramov) zimmasiga yuklatilsin.

Сессия раиси **Maxmudaliyev N. A.**

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
1-илова

Фарғона шаҳар маҳаллий бюджетининг даромадларининг 2022 йилдаги асосий прогноз кўрсаткичлари

№	Даромадлар номи	Ажратма меъёри	Фарғона шаҳри
I.	**Тартибга солувчи даромадлар**		**61 353 500**
1	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи		*0*
2	Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	*50*	*61 353 500*
II.	**Бириктирилган даромадлар**		**142 852 200**
	Тўлиқ туман маҳаллий бюджетига		**72 115 000**
1	Корхоналар айланмасидан солиқ	100	40 483 000
2	Якка тартибдаги тадбиркорлар учун жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	100	6 168 000
3	Жисмоний шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	100	12 973 000
4	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	100	10 203 000
5	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	100	2 288 000
	Вилоят ва туман маҳаллий бюджетлари ўртасида тақсимланадиган даромадлар		**70 737 200**
1	Қурилиш материаллари бўйича ер қаридан фойдаланганлик учун солиқ	*100*	*0*

№	Даромадлар номи	Ажратма меъёри	Фарғона шаҳри
2	Якуний истеъмолчиларга бензин, дизель ёқилғиси ва газ реализация қилишдаги акциз солиғи	*20*	*15 807 200*
3	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	*50*	*24 647 000*
4	Юридик шахслардан ундириладиган ер солиғи	*50*	*22 847 000*
5	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	*50*	*7 436 000*
III.	**Маҳаллий бюджет даромадлари прогнози**		**204 205 700**
IV.	**Ўтказиб бериладиган даромадлар**		**47 719 000**
	Аҳоли сони (минг.киши) 01.07.2021 ҳолатига		*296*
14	Алкоголь маҳсулотлари, шу жумладан пиво		18 060 000
15	Мобиль алоқа хизматини кўрсатганлик учун акциз солиғи		10 289 000
16	Тамаки маҳсулотлари бўйича акциз солиғи		19 370 000
V.	**Маҳаллий бюджетларнинг жами даромадлари**		***251 924 700***
VI.	**Маҳаллий бюджетларнинг жами харажатлари**		**276 884 177,0**
VII.	**Трансфертлар**		**24 959 477**

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
2-илова

2022 йил учун Фарғона шаҳар бюджетидан ҳудудий бюджет маблағлари тақсимловчиларга ажратилган маблағларининг киритилган ўзгаришлар билан чекланган миқдорлари

Кўрсаткичлар		Фарғона шаҳар
	ХАРАЖАТЛАР-ЖАМИ	**276 884 177**
1.	**ИЖТИМОИЙ СОҲА ВА АҲОЛИНИ ИЖТИМОИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШГА ХАРАЖАТЛАР - ЖАМИ**	**184 276 446**
	шу жумладан:	
1.1	Маориф	38 919 285
	- мактабгача таълим	16 486 623
	- умумий таълим	22 432 662
	- кадрлар тайёрлаш	0
1.2	Соғлиқни сақлаш	98 917 205
1.3	Маданият ва спорт, оммавий ахборот воситалари	9 322 697
	- маданият ва оммавий ахборот воситалари	2 485 726
	- спорт	6 836 971
1.4	Фан	0
1.5	Болали оилаларга ва кам таъминланган оилаларга нафақалар ва компенсациялар	36 836 488
1.14	Ижтимоий кўникма марказлари	280 771
2.	**ИҚТИСОДИЁТГА ХАРАЖАТЛАР**	**56 510 228**
	шу жумладан:	
2.3	Ободонлаштириш	53 768 099
2.16	Ветеринария қўмитаси	618 129
2.17	Маҳаллий бюджетларда ҳоким ёрдамчиларининг тавсиялари асосида маҳалла инфратузилмасини яхшилаш учун	2 124 000
3.	**МАРКАЗЛАШТИРИЛГАН ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ МОЛИЯЛАШТИРИШГА ХАРАЖАТЛАР**	**0**
4.	**ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**12 310 400**
	шу жумладан:	
4.1	Давлат хокимияти органлари	12 310 400
4.2	Давлат бошқарув идоралари	
5.	**ФУҚАРОЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИ САҚЛАШ**	**7 991 259**
6.	**Сув хўжалиги вазирлиги ташкилотлари**	
7.	**Фермерлар хўжаликлари бухгалтерия марказлари**	
6.	**ЗАҲИРА ЖАМҒАРМАСИ**	**2 610 883**
7.	**БОШҚА ХАРАЖАТЛАР**	**13 184 961**
	шу жумладан:	
7.1	Маҳаллий бюджетдан молиялаштириладиган бошқа муассасалар ва тадбирлар	0
7.2	Қабуллар уйини сақлаш харажатлари	0
7.3	Фуқаролар ташаббуси жамғармаси	13 184 961
7.4	Адвокатлик хизматлари харажатлари	0
7.5	Чет эл кредитларини қоплаш	

	ЖАМИ МАҲАЛЛИЙ ДАРОМАДЛАР	**251 924 700**
	ТРАНСФЕРТ	**24 959 477**

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 йил учун бюджет даромадларининг маҳаллий бюджетлар ўртасида тақсимланиши бўйича ажратма меъёрлари

Т/Р	Шахар номи	Корхоналар айланмасидан солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Якка тартибдаги тадбиркорлар тўлайдиган жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Юридик шахслардан ундириладиган фойда солиғи	Бензин, дизел ёқилғиси ва газни якуний истеъмолчиларга реализация қилишдаги акциз солиқ	Жисмоний шахслар мол-мулкига солинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан ер солиғи	Қурилиш материаллари бўйича ер қаъридан фойдаланганлик учун солиқ	Давлат мулки бўйича ижара тўловлари	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ	Юридик шахслар ер солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ
1	Фарғона ш	100		100	50	20	100	100	50	100	50	50	50

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
4-илова

Фарғона шаҳар маҳаллий бюджетларининг 2022 йил даромадлари ва харажатлариинг чегаравий ҳажми

минг сўмда

№	Ҳудуд номи	Даромад	Харажат
1	Фарғона шаҳар	251 924 700,0	276 884 177,0

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
5-илова

Фарғона шаҳар маҳаллий бюджетининг 2022 йилги юқори бюджетдан ажратиладиган тартибга солувчи бюджетлараро трансфертлар миқдорлари

минг сўмда

№	**Шаҳар номи**	Тартибга солувчи трансферт миқдори жами
	ЖАМИ	**24 959 477**
1	Фарғона шаҳар	24 959 477

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
6-илова

2022 йилда шаҳар маҳаллий бюджетида айланма касса маблағларининг йўл қўйиладиган энг кам миқдори

минг сўмда

Т/р	**Ҳудуд номи**	**Миқдори**
	ЖАМИ	**2 523 000,0**
1	Фарғона шаҳар	2 523 000,0

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
7-илова

Қишлоқ хўжалиги учун мўлжалланмаган ерлар учун юридик шахслар бўйича мутлоқ миқдорда белгиланган базавий солиқ ставкасига киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

минг сўмда

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 га учун)
1	Фарғона ш	Ойбек	2,20	82 940
2	Фарғона ш	Маърифат	2,20	82 940
3	Фарғона ш	Фурқат	2,20	82 940
4	Фарғона ш	Симтепа	2,20	82 940
5	Фарғона ш	Бахор	2,20	82 940
6	Фарғона ш	Наврўз	1,50	56 550
7	Фарғона ш	Машъал	2,20	82 940
8	Фарғона ш	Ёшлар	2,00	75 400
9	Фарғона ш	Янги йўл	2,00	75 400
10	Фарғона ш	Мирзо Улуғбек	2,00	75 400
11	Фарғона ш	Фарғона	1,50	56 550
12	Фарғона ш	Сой бўйи	1,50	56 550
13	Фарғона ш	С.Темур	1,50	56 550
14	Фарғона ш	А.Навоий	1,50	56 550
15	Фарғона ш	Гулзор	1,30	49 010
16	Фарғона ш	Дўстлик	1,50	56 550
17	Фарғона ш	Ш.Рашидов	1,50	56 550
18	Фарғона ш	Беглар	1,00	37 700
19	Фарғона ш	Қиргули	1,70	64 090
20	Фарғона ш	Совурбулоқ	1,20	45 240
21	Фарғона ш	Жўйдам	1,50	56 550
22	Фарғона ш	Ёрмозор	1,20	45 240

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 га учун)
23	Фарғона ш	Ипак йўли	1,30	49 010
24	Фарғона ш	Шодлик	1,30	49 010
25	Фарғона ш	Шаршара	1,30	49 010
26	Фарғона ш	Оқариқ	1,20	45 240
27	Фарғона ш	Шодиёна	1,20	45 240
28	Фарғона ш	Тинчлик	1,10	41 470
29	Фарғона ш	Мустақиллик	0,90	33 930
30	Фарғона ш	Бешбола	1,20	45 240
31	Фарғона ш	Хўжамағиз	1,30	49 010
32	Фарғона ш	Сурхтепа	1,30	49 010
33	Фарғона ш	Нафосат	1,00	37 700
34	Фарғона ш	Сохибкор	1,20	45 240
35	Фарғона ш	Афросиёб	2,00	75 400
36	Фарғона ш	Ўрмончилар	0,90	33 930
37	Фарғона ш	Оқариқобод	1,00	37 700
38	Фарғона ш	Янги сой	1,20	45 240
39	Фарғона ш	Гулистон	1,30	49 010
40	Фарғона ш	Бўстон	1,20	45 240
41	Фарғона ш	Истиқлол	1,10	41 470
42	Фарғона ш	Бобур	1,20	45 240
43	Фарғона ш	А.Қодирий	1,20	45 240
44	Фарғона ш	Лолазор	1,20	45 240
45	Фарғона ш	Ал-Хоразмий	1,20	45 240
46	Фарғона ш	А.Жомий	1,00	37 700
47	Фарғона ш	Ўзбекистон	1,20	45 240
48	Фарғона ш	Мададкор	1,20	45 240
49	Фарғона ш	Тўқимачилар	1,20	45 240
50	Фарғона ш	Зарбдор	1,20	45 240
51	Фарғона ш	1- Кичик Бешбола	1,20	45 240

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 га учун)
52	Фарғона ш	Ибн Сино	1,20	45 240
53	Фарғона ш	Маданият	1,10	41 470
54	Фарғона ш	Истиқбол	1,20	45 240
55	Фарғона ш	Баркамол	1,20	45 240
56	Фарғона ш	Кимёгар	1,20	45 240
57	Фарғона ш	Мехрибонлик	1,20	45 240
58	Фарғона ш	Хувайдо	1,20	45 240
59	Фарғона ш	Навбохор	1,20	45 240
60	Фарғона ш	Юлдуз	1,20	45 240
61	Фарғона ш	Беруний	1,30	49 010
62	Фарғона ш	Табассум	1,20	45 240
63	Фарғона ш	Хамкорлик	1,20	45 240
64	Фарғона ш	Мурувват	1,10	41 470
65	Фарғона ш	Ал-Фарғоний	1,30	49 010
66	Фарғона ш	Ибрат	1,30	49 010
67	Фарғона ш	Нодирабегим	1,40	52 780
68	Фарғона ш	Парвоз	1,20	45 240
69	Фарғона ш	Ифтихор	1,00	37 700
70	Фарғона ш	Шакарқишлоқ	1,20	45 240

Халқ депутатлари Фарғона шаҳар
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-44-60-11-169-К/21-сон қарорига
8-илова

Жисмоний шахслар бўйича (деҳқон хўжалигини юритиш учун берилган қишлоқ хўжалигига мўлжаллаган ерлардан ташқари) мутлоқ миқдорда 1 кв.м. учун белгиланган базавий солиқ ставкаларига нисбатан киритилаётган камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сўмда

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 кв учун)
1	Фарғона ш	Ойбек	2,20	686,4
2	Фарғона ш	Маърифат	1,50	468,0
3	Фарғона ш	Фурқат	1,50	468,0
4	Фарғона ш	Симтепа	1,50	468,0
5	Фарғона ш	Бахор	1,50	468,0
6	Фарғона ш	Наврўз	1,50	468,0
7	Фарғона ш	Машъал	1,50	468,0
8	Фарғона ш	Ёшлар	1,40	436,8
9	Фарғона ш	Янги йўл	1,20	374,4
10	Фарғона ш	Мирзо Улуғбек	1,20	374,4
11	Фарғона ш	Фарғона	1,20	374,4
12	Фарғона ш	Сой бўйи	1,20	374,4
13	Фарғона ш	С.Темур	1,20	374,4
14	Фарғона ш	А.Навоий	1,20	374,4
15	Фарғона ш	Гулзор	1,10	343,2
16	Фарғона ш	Дўстлик	1,10	343,2
17	Фарғона ш	Ш.Рашидов	1,10	343,2
18	Фарғона ш	Беглар	1,20	374,4
19	Фарғона ш	Қиргули	1,40	436,8
20	Фарғона ш	Совурбулоқ	1,20	374,4
21	Фарғона ш	Жўйдам	1,20	374,4
22	Фарғона ш	Ёрмозор	1,20	374,4

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 кв учун)
23	Фарғона ш	Ипак йўли	1,30	405,6
24	Фарғона ш	Шодлик	1,30	405,6
25	Фарғона ш	Шаршара	1,30	405,6
26	Фарғона ш	Оқариқ	1,20	374,4
27	Фарғона ш	Шодиёна	1,20	374,4
28	Фарғона ш	Тинчлик	1,10	343,2
29	Фарғона ш	Мустақиллик	1,40	436,8
30	Фарғона ш	Бешбола	1,20	374,4
31	Фарғона ш	Хўжамағиз	1,30	405,6
32	Фарғона ш	Сурхтепа	1,30	405,6
33	Фарғона ш	Нафосат	1,00	312,0
34	Фарғона ш	Сохибкор	1,20	374,4
35	Фарғона ш	Афросиёб	1,40	436,8
36	Фарғона ш	Ўрмончилар	1,40	436,8
37	Фарғона ш	Оқариқобод	1,00	312,0
38	Фарғона ш	Янгисой	1,20	374,4
39	Фарғона ш	Гулистон	1,30	405,6
40	Фарғона ш	Бўстон	1,20	374,4
41	Фарғона ш	Истиқлол	1,10	343,2
42	Фарғона ш	Бобур	1,10	343,2
43	Фарғона ш	А.Қодирий	1,10	343,2
44	Фарғона ш	Лолазор	1,10	343,2
45	Фарғона ш	Ал-Хоразмий	1,10	343,2
46	Фарғона ш	А.Жомий	1,10	343,2
47	Фарғона ш	Ўзбекистон	1,10	343,2
48	Фарғона ш	Мададкор	1,20	374,4
49	Фарғона ш	Тўқимачилар	1,20	374,4
50	Фарғона ш	Зарбдор	1,20	374,4
51	Фарғона ш	1-Кичик Бешбола	1,20	374,4
52	Фарғона ш	Ибн Сино	1,20	374,4

Т/р	Шаҳар номи	МФЙ лар номи	Коэффициент (0,7 дан 3,0 гача)	Ер солиғи ставкаси 2022 йил учун (1 кв учун)
53	Фарғона ш	Маданият	1,10	343,2
54	Фарғона ш	Истиқбол	1,10	343,2
55	Фарғона ш	Баркамол	1,10	343,2
56	Фарғона ш	Кимёгар	1,10	343,2
57	Фарғона ш	Мехрибонлик	1,10	343,2
58	Фарғона ш	Хувайдо	1,10	343,2
59	Фарғона ш	Навбохор	1,10	343,2
60	Фарғона ш	Юлдуз	1,10	343,2
61	Фарғона ш	Беруний	1,30	405,6
62	Фарғона ш	Табассум	1,10	343,2
63	Фарғона ш	Хамкорлик	1,10	343,2
64	Фарғона ш	Мурувват	1,10	343,2
65	Фарғона ш	Ал-Фарғоний	1,30	405,6
66	Фарғона ш	Ибрат	1,30	405,6
67	Фарғона ш	Нодирабегим	1,30	405,6
68	Фарғона ш	Парвоз	1,20	374,4
69	Фарғона ш	Ифтихор	1,30	405,6
70	Фарғона ш	Шакарқишлоқ	1,20	374,4